**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”** ______________

Rektor prof. K.Sharipov

202___ yil “___”___________

# IQTISODIY JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH TIZIMI

# FAN SILLABUSI

**Bilim sohasi:** 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

**Ta’lim sohasi:** 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar

**Ta’lim yo‘nalishi:** 70310401-Iqtisodiy xavfsizlik

**Toshkent – 2022 yil**

## FAN TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Fan kodi: **ECOCRI7.5**
Fan nomi: **Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi**
Semestr/Yil**: 3-semestr/ 2022-2023 o‘quv yili**
Kafedra: **Iqtisodiy xavfsizlik**
Soatlar/kreditlar miqdori: 7.5 ECTS

| Ma’ruza | Amaliy mashg‘ulot | Mustaqil ta’lim | Jami |
|---|---|---|---|
| 42 | 48 | 135 | 225 |

**Fan bo‘yicha mashg‘ulotlarning joylashuvi:**
Auditoriya va vaqti: Dars jadvaliga asosan
Prerekvizitlar:
Fan uchun mas’ul kafedra: **Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasi**

**O‘QITUVCHI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT**

**O‘qituvchi:** Tursunov Bobir Ortikmirzayevich
**Kafedra joylashgan joyi:** TDIU, 5-o‘quv binosi, 217-xona
**Telefon:** 71-232-69-93 ish telefoni
**E-mail:** tursunovbobir1984@gmail.com
**Talablarni qabul qilish vaqti**: Talabalar darsdan tashqari vaqtda o‘qituvchi bilan uchrashish uchun o‘qituvchi elektron pochtasiga xat bilan murojaat qilib, uchrashuv vaqtini belgilab olishlari mumkin.

### I. Fan tavsifi

Ushbu fan “Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi” deb nomlanib, unda iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning umumiy tavsifi, mohiyatini o‘rganishdan iborat. Kurs iqtisodiy jinoyatchilikka oid qonunlar, iqtisodiy jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari, mulkiy jinoyatlar, soxta tadbirkorlik jinoyati, jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimi, bank-moliya, kredit sohasidagi iqtisodiy jinoyatlar, soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyati, yashirin iqtisodiyotning vujudga kelishi hamda iqtisodiy va korrupsiyaga oid huqubuzarliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Kurs davomida iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning belgilari; iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning milliy va xalqaro tizimini, respublika iqtisodiyoti taraqqiyotining xarakterli xususiyatlari; iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning mavjud holati va ularni hal etish mexanizmlari, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olish choralari, xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish, “FATF (FATF) – pul mablag‘larini yuvishga qarshi kurash bo‘yicha moliyalashtirish choralarini ishlab chiqish guruhi”ning xizmat va vazifalari, pullarni yuvish, terrorizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg‘in qurollarini tarqalishi va konfiskatsiya qilish haqida, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning xorij tajribasini qo‘llay olish, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlilini amalga oshirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Kurs tinglovchilarga iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini tahlil qilish uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llashga imkon beradi.

Fanning vazifalari –

“Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi” fanning predmeti, maqsadi va vazifalarini o‘rganish;

Iqtisodiy jinoyatchilikning umumiy tavsifi. iqtisodiy jinoyatchilikning evolyusiyasi tushunib borish;

Iqtisodiy jinoyatchilikka oid qonunchilik va iqtisodiy jinoyatchilikning jinoiy-huquqiy tavsifi o‘zlashtirish;

Iqtisodiy jinoyatchilikning kriminologik tavsifi o‘rganish;

Iqtisodiy jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari va oldini olish choralari o‘rganish;

Mulkiy jinoyatlar, mulkni o‘zlashtirish yoki rastrata qilish yo‘li bilan talon-toroj qilishga choralarni o‘rganish;

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to‘siqlar. soxta tadbirkorlik jinoyati. tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishni bilish;

Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimini tartibga solishning huquqiy asoslarini o‘rganish;

Noqonuniy mablag‘larni o‘zlashtirish va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatini o‘rganish;

Bank-moliya, kredit sohasidagi iqtisodiy jinoyatlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish

Soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyati tushunchasi. Byudjet mablag‘larini talon-taroj qilishga qarshi kurashishni bilish;

Sanoat tarmoqlari majmuidagi iqtisodiy jinoyatlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashishni o‘rganish;

Noqonuniy yo‘l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish – iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash choralarini bilish;

Yashirin iqtisodiyot fenomeni. Yashirin iqtisodiyotning vujudga kelish sabablari va unga qarshi kurashishda davlat chora-tadbirlarini o‘rganish;

Iqtisodiy va korrupsiyaga oid huqubuzarliklarni, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni, terrorizmni moliyalashtirishni oldini olishni bilish.

“Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi” fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan bo‘lib, u 2-kurslarda o‘qitilishi maqsadga muvofiq. “Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi” fani 60310400-Iqtisodiy xavfsizlik ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladi. Mazkur fan boshqa iqtisodiy xavfsizlik kabi bir qator fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘z rivojida iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha yo‘naltirilgan fanlar uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

**II. Fanning maqsadi**

Maqsad talabalar ushbu kursda qatnashish orqali quyidagilarni amalga oshirishlari mumkin:

O‘zbekistonda iqtisodiy jinoyatchilikka oid qonunlar, iqtisodiy jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari, mulkiy jinoyatlar, soxta tadbirkorlik jinoyati, jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimi, bank-moliya, kredit sohasidagi iqtisodiy jinoyatlar, soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyati, sanoat tarmoqlari majmuidagi iqtisodiy jinoyatlar, yashirin iqtisodiyotning vujudga kelishi hamda iqtisodiy va korrupsiyaga oid huqubuzarliklar, “FATF (FATF) – pul mablag‘larini yuvishga qarshi kurash bo‘yicha moliyalashtirish choralarini ishlab chiqish guruhi” ning standartlarini tadbiq etishni tushunishi.

Ushbu kursda keltirilgan iqtisodiy jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, mulkiy jinoyatlar, soxta tadbirkorlik jinoyati, yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoiy daromadlarni legallashtirishga hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimi to‘g‘risida mulohaza qilish.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi.

***Talaba:***

Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarurligini tushunishi. Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning turli darajalarini bilib olishi va tushunishi. Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning turli xil strategik variantlarni bilib olishi. Har bir iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan afzallik va kamchiliklarni, turli xil

kombinatsiyalarini baholay olishi. Turli manbalardan ma’lumotlarni qidirish, tahlil qilish va sintez qila olishi.

**III. Ta’lim berish natijalari**

Ushbu fanni muvoffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarurligini tushunishi. Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning turli darajalarini bilib olishi va tushunishi. Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning turli xil strategik variantlarni bilib olishi. Har bir iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan afzallik va kamchiliklarni, turli xil kombinatsiyalarini baholay olishi. Turli manbalardan ma’lumotlarni qidirish, tahlil qilish va sintez qila olishi.

**IV. Ta’lim berish usullari**

- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish;
- jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni echish;
- so‘rov o‘tkazish;
- muammoni hal qilish.

**V. Fanning tarkibiy tuzilishi:**

| Dars | Mavzular | Ma’ruzalar uchun savollar | Soatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ma’ruza | Amaliy va seminar | Mustaqil ta`lim |
| 1 | **“Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi” fanning predmeti, maqsadi va vazifalari** | 1.1. ”Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi” fanining predmeti.<br>1.2. “Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi” fanining maqsadi va vazifalari. | 2 | 2 | 10 |
| 2 | **Iqtisodiy jinoyatchilikning umumiy tavsifi. iqtisodiy jinoyatchilikning evolyusiyasi** | 2.1. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning umumiy tavsifi va turlari.<br>2.2. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning belgilari.<br>2.3. “Iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar” va “Iqtisodiy jinoyatchilik” tushunchalarining nisbati.<br>2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”dagi PF-60 sonli farmonning mamlakatimizda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalari.<br>2.5. O‘zbekistonda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli dasturlari. | 4 | 4 | 10 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **3** | **Iqtisodiy jinoyatchilikka oid qonunchilik va iqtisodiy jinoyatchilikning jinoiy-huquqiy tavsifi** | 3.1. Iqtisodiy jinoyatchilikda jinoiy-huquqiy tushuncha.<br>3.2. Iqtisodiy jinoyatchilikning elementlari va amaliy ahamiyati.<br>3.2. Iqtisodiy jinoyatchilikning jinoiy-huquqiy xarakteristikasi | 2 | 4 | 10 |
| **4** | **Iqtisodiy jinoyatchilikning kriminologik tavsifi** | 4.1. Iqtisodiy jinoyatchilikning kriminologik tavsifi.<br>4.2. Iqtisodiy jinoyatchilikning elementlari va amaliy ahamiyati.<br>4.3. Iqtisodiy jinoyatchilikning kriminologik xususiyatlari. | 2 | 4 | 10 |
| **5** | **Iqtisodiy jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari va oldini olish choralari** | 5.1. Iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning kelib chiqishining sabablari, shart-sharoitlari.<br>5.2. Iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning oldini olish choralari.<br>5.3. Davlatlarning iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat organlarining roli. | 4 | 4 | 8 |
| **6** | **Mulkiy jinoyatlar, mulkni o‘zlashtirish yoki rastrata qilish yo‘li bilan talon-toroj qilish** | 6.1. Mulk huquqi va mulkiy manfaatlar tushunchasi.<br>6.2. Mulkiy jinoyatlarning sodir bo‘lishi.<br>6.3. Mulkni talon-toroj qilish tushunchasi.<br>6.4. Mulkiy jinoyatlar.<br>6.5. Jinoyat Kodeksida mulkni muhofaza qilish ob’ekti sifatida. | 4 | 4 | 10 |
| **7** | **Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga to‘siqlar. soxta tadbirkorlik jinoyati. tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish** | 7.1. Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik).<br>7.2. Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari.<br>7.3. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibiga to‘siqlar.<br>7.4. Tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzish jinoyatining tushunchasi, tarkibi va turlari. | 4 | 4 | 8 |
| **8** | **Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimini tartibga solishning huquqiy asoslari** | 8.1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish tushunchasi.<br>8.2. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimi va uni tartibga solish asoslari.<br>8.3. Jinoiy yo‘l bilan orttirilgan “daromadlarni legallashtirish” terminini paydo bo‘lish tarixi va ularga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va uni shakllanish bosqichlari.<br>8.4. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi. | 4 | 4 | 8 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **9** | **Noqonuniy mablag'larni o'zlashtirish va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyati** | 9.1. Terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyati.<br>9.2. "FATF (FATF) – pul mablag'larini yuvishga qarshi kurash bo'yicha moliyalashtirish choralarini ishlab chiqish guruhi" ning xizmat va vazifalari.<br>9.3. "Egmont" guruhi va uning asosiy vazifalari. | 2 | 2 | 8 |
| **10** | **Bank-moliya, kredit sohasidagi iqtisodiy jinoyatlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish** | 10.1. Moliya va kredit munosabatlarining milliy iqtisodiyot rivojiga ta'siri.<br>10.2. Moliya va kredit sohasidagi jinoyatlar tasnifi.<br>10.3. Moliyaviy jinoyatchilik.<br>10.4. Moliyaviy ta'magirlik.<br>10.5. Moliyaviy jinoyatchilik ob'ektlari.<br>10.6. Moliyaviy jinoyatchilik turlari.<br>10.7. Moliya muassasalarining iqtisodiy manfaatlari.<br>10.8. Korxonalar faoliyatini moliyaviy nazorat qilish. | 4 | 4 | 8 |
| **11** | **Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyati tushunchasi. byudjet mablag'larini talon-taroj qilishga qarshi kurashish** | 11.1. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyatining tushunchasi tarkibi va turlari.<br>11.2. Foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa ob'ektlarni qasddan yashirish tushunchasi.<br>11.3. Foydani (daromadni) yoki soliq solinadigan boshqa ob'ektlarni kamaytirib ko'rsatish.<br>11.3. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan boshqa tarzda qasddan bo'yin tovlash. | 4 | 4 | 10 |
| **12** | **Sanoat tarmoqlari majmuidagi iqtisodiy jinoyatlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish** | 12.1. Sanoat tarmoqlarida iqtisodiy jinoyatlar tushunchasi.<br>12.2. Jinoyat kodeksiga sanoat ishlab chiqarishi, elektr, issiqlik energiyasi, neft-gaz, yer osti va yer usti resurslaridan foydalanish qoidalarini buzish jinoyatining kiritilishi.<br>12.3. Sanoatda xodimlar xavfsizligini himoya qilish standartlari.<br>12.4. Xodimlarni ishlab chiqarish joylarida turli xavflardan himoyalashni tashkil qilish masalalari. | 2 | 4 | 10 |
| **13** | **Noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish – iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash** | 13.1. Noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish tushunchasi, belgilari va xususiyatlari.<br>13.2. Noqonuniy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi | 2 | 4 | 8 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | kurashishni huquqiy tartibga solishning xalqaro va xorij tajribalari.<br>13.3. O‘zbekiston Respublikasida noqonuniy yo‘l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida me’yoriy-huquqiy bazaning shakllanishi va rivojlanishi.<br>13.4. Rossiya Federatsiyasidagi xavf-xatarlarni baholash milliy tizimi. | | | |
| **14** | **Yashirin iqtisodiyot fenomeni. Yashirin iqtisodiyotning vujudga kelish sabablari va unga qarshi kurashishda davlat chora-tadbirlari** | 14.1. Yashirin iqtisodiyotning mazmuni.<br>14.2. Yashirin iqtisodiyot tushunchasi va tuzilishi.<br>14.3. Yashirin iqtisodiyotning vujudga kelish sabablari.<br>14.4. Yashirin iqtisodiyotning turlari.<br>14.5. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda davlatning chora-tadbirlari.<br>14.6. Yashirin iqtisodiyot sektorlari. | 2 | 4 | 10 |
| **15** | **Iqtisodiy va korrupsiyaga oid huqubuzarliklarni, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishni, terrorizmni moliyalashtirishni oldini olish** | 15.1. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy asoslari.<br>15.2. Jinoiy faoliyat natijasida olingan moddiy qimmatliklar tushunchasi va mohiyati.<br>15.3. Jinoiy daromadlarni qaytarishning xalqaro-huquqiy va milliy qonunchilikdagi asoslari. | 4 | 4 | 5 |
| **Jami soat** | | | **42** | **48** | **135** |

**VI. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning umumiy tavsifi va turlari.
2. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning belgilari.
3. “Iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlar” va “Iqtisodiy jinoyatchilik” tushunchalarining nisbati.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”dagi PF-60 sonli farmonning mamlakatimizda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalari.
5. O‘zbekistonda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli dasturlari.
6. Iqtisodiy jinoyatchilikning elementlari va amaliy ahamiyati.
7. Iqtisodiy jinoyatchilikning jinoiy-huquqiy xarakteristikasi
8. Iqtisodiy jinoyatchilikning kriminologik tavsifi.
9. Iqtisodiy jinoyatchilikning elementlari va amaliy ahamiyati.
10. Iqtisodiy jinoyatchilikning kriminologik xususiyatlari
11. Iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning kelib chiqishining sabablari, shart-sharoitlari.
12. Iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning oldini olish choralari.
13. Davlatlarning iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat organlarining roli.
14. Mulkiy jinoyatlar.
15. Jinoyat Kodeksida mulkni muhofaza qilish ob’ekti sifatida.
16. Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik).
17. Tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari.

18. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibiga to‘siqlar.

19. Tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qilish tartibini buzish jinoyatining tushunchasi, tarkibi va turlari.

20. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish tushunchasi.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## VII. ADABIYOTLAR

### Asosiy adabiyotlar


1. Б.И.Исроилов, К.В.Швецов, Н.Г.Каримов, И.С.Хотамов, И.Б.Захарова, А.А.Исламов. Современная система противодействия отмыванию преступных доходов и финансированию терроризма (ПОД/ФТ). Учебное пособие. Санкт-Петербург, СПбПУ, 2018 год, 386 стр. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).
2. Tursunov B.O. Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. TDIU, 2021.-360 b.


### Qo’shimcha adabiyotlar


1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- T.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa Doktrinasi to‘g‘risida 2018 yil 9 yanvar, O‘RQ-458-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g'risida”dagi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
4. I.B.Kardashov. Основы национальной безопасности. Uchebnik. M.: Yurayt-2018.-302 s. (Ushbu kitob universitet ARMda PDF variantda mavjud).


### Axborot manbalari


1. www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. http://parlament.gov.uz
4. http://strategy.regulation.gov.uz
5. https://dspace.kpfu.ru - Economic Security Policy of the Russian Federation
6. https://www.researchgate.net-Threats to economic security of the region
7. https://journals.aserspublishing.eu-Economic Security of Regions
8. https://insonvaqonun.uz-Mintaqaviy xavfsizlik: uni ta’minlashning siyosiy-huquqiy jihatlari.


## VIII. Talabalar bilimini baholash

Ushbu fan (modul) bo‘yicha talabalar bilimini baholash semestr davomida o‘quv materiallarini (testlar va yozma ishlar) bajarishga asoslanadi. Dars davomida talabalar 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan, talabaning dars mashg’ulotlaridagi ishtiroki, mustaqil ishlar va joriy natijalar uchun 30 ball, oraliq nazorat uchun 20 ball, yakuniy nazorat uchun 50 ball beriladi. Yakuniy nazorat yozma shaklda amalga oshiriladi. Joriy, oraliq va nazorat vazifalari quyidagicha taqsimlanadi:

| TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TARTIBI | | | |
|---|---|---|---|
| **Reytingni baholash turlari** | **Maks. ball** | **Bajariladigan topshiriqlar** | **Topshiriqlarni bajarilish muddati*** |
| **joriy nazorat, shundan** | **30** | O‘quv jarayonining jadvali bo‘yicha | |
| - Dars mashg’ulotlaridagi ishtiroki | **10** | talabaning dars jadvaliga muvoffiq ma’ruza, seminar, amaliy mashg’ulot, laboratoriya mashg’ulotlarida ishtirok etishi. Talabalarning | Fanning dars jadvalidagi auditoriya |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | dars mashg'ulotlariga ishtirok etishlari majburiy hisoblanadi va talablarning dars mashg'ulotlariga ishtiroki rag'batlantiriladi | vaqtiga mos holda |
| - Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi | **10** | fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, keys stadi, kazus yoki fabula vaziyatli topshiriqlar, loyiha, kurs ishi, uy vazifalarini bajarishi | Fanning dars jadvalidagi auditoriya vaqtiga mos holda |
| Mustaqil ta'lim, shundan | **10** | talabalar mustaqil ishlarini ikki yo'nalishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladi | |
| 1-mustaqil ish | 5 | mustaqil ta'lim mavzularidan biri bo'yicha Esse yoki tezis yozish (1000-1200 so'zdan kam bo'lmasligi lozim) | topshrishning oxirgi muddati: 2022 yil 20 oktyabr soat 18.00 gacha |
| 2-mustaqil ish | 5 | mustaqil ta'lim mavzularidan biri bo'yicha loyiha ishini tayyorlash va himoya qilish | topshrishning oxirgi muddati: 2022 yil 25 noyabr soat 18.00 gacha |
| **Oraliq nazorat** | **20** | **Taqdimot shaklida (**kichik guruhlarda ishlash**)** | 2022 yil 5-9 dekabr |
| **Yakuniy nazorat** | **50** | test | 2023 yil 18 yanvar |
| **Jami** | **100** | | |

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

**YaB=DI+JN+ON+YaN**

bu yerda: DI – dars mashg'ultotlaridagi ishtirok; JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YaN – yakuniy nazorat.

***Eslatma:*** *dars mashg'ultotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (50 ball) ning kamida 60 foizini to'play olmagan talabaning yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi.*

## IX. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'trasidagi o'zaro munosabat samimiy va beg'araz bo'ishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O'qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo'lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshiriqgi 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo'lmasa ish qabul qilinmaydi.

**X.** Ushbu sillabus Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil "___" ______ dagi ____-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

## XI. Taqrizchilar

| | |
|---|---|
| Yadgarov A.A. | i.f.n., Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti |
| M.Karimjonova | i.f.f.d. (Ph.D) O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona instituti dotsenti |